



O'XSHATISHLARDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI

Qurbanova Shahnoza Xolbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi o'xsahitishlarning subyektiv baho ifodalashi o'r ganilgan. Unda baho va konnotatsiyaning o'xhash va farqli tomonlari aniqlangan, o'xhatish orqali hosil qilinagan baho munosabati misollar yordamida tahlil qilingan. Maqolada o'xhatishlar ijobjiy va salbiy munosabatni ifodalovchi vosita ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. O'xhatish, konnotatsiya, baho munosabati, ijobjiylik, salbiylik, subyektivlik.

O'xhatish qurilmali gaplarda ham baho munosabati ifodalanishi mumkin. Subyekt bilan bog'liq har qanday nutqda so'zlovchining xoh ijobjiy bo'lsin, xoh salbiy bo'lsin munosabati aks etadi. Pragmatika va ekspressiv sintaksis avval ham qayd qilib o'tilganidek, adresantning nutqi orqali shaxsiy munosabatini ifodalaganda, bu munosabat kontekstsda namoyon bo'lgan o'rinda kesishadi.

Ma'lumki, har qanday subyektiv baho ijobjiy yoki salbiy xarakterda bo'lishi mumkin. «So'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobjiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishi subyektiv baho»¹⁰¹ deb tavsiflanib, uni ifodalovchi morfologik shakllar monografik tadqiq qilingan. Baholashda insonning shaxs sifatida voqelikka obyektiv va subyektiv munosabati ifodalanadi. «Kishining turli istaklari, didi, hayotiy ehtiyojlari subyektiv bahoni shakllantirsa, baholanuvchi obyektga xos faktik xususiyatlar obyektiv baho uchun asos bo'lib xizmat qiladi»¹⁰². Pragmatik bahoning yuzaga kelishida o'xhatish belgisi sifatida ajratilgan so'zning ma'nosi, ijobjiy yoki salbiy bo'yoqqa ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

U, bo'sh joy izlab, shomda qolgan tovuqday bo'ynini cho'zib, u yoq-bu yoqqa qaradi, aftidan, hech narsani ko'rmas edi. (A.Qahhor). Keltirilgan misolda *shomda qolgan tovuqday bo'ynini cho'zib* yozuvchining o'ziga xos o'xhatishi bo'lib, unda subyektiv baho munosabati ifodalangan.

Baho kategoriyasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirar ekan, S.Boymirzayeva ularni quyidagi uch guruhga ajratadi:

1. Baho – so'zlovchi yoki nutq sub'ektining borliqdagi narsa va hodisalarga munosabatidir. Ba'zan ushbu «munosabat» yanada aniqlashtiriladi va uning subyektiv, obyektiv – suyektiv hamda subyektiv – obyektiv turlari farqlanadi. Ushbu ta'rif ko'pchilik tilshunoslar tomonidan ma'qullanib kelinmoqda.

¹⁰¹ Кўнгуроров Р.Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980. – Б. 42.

¹⁰² Пардаев З. Прагматик мазмун ва баҳолаш муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №4. – Б. 70.



2. Baho – borliqdagi predmet va hodisalar qiymati haqidagi fikr (ushbu fikrni ifodalovchi lisoniy birlik). Bu ta'rifdan asosan faylasuflar foydalanib kelmoqdalar, biroq tilshunoslar ham bu ta'rifga bee'tibor emas.

3. Baho predmet va hodisalarga berilayotgan sifatning so'zlovchining ma'lum qadriyatlar, normalarga tayanadigan ehtiyoji, maqsadi, qiziqishiga mos kelishi yoki kelmasligini ifodalovchi lisoniy faoliyatdir. Ushbu ko'rinishdagi ta'rifdan faylasuf va tilshunoslar parallel foydalanmoqdalar».¹⁰³

Ko'rindiki, baho kategoriyasi konnotatsiyadan tubdan farq qiladi. Baho kategoriyasi nutq egasining nutq ob'ekti haqidagi shaxsiy munosabatining ifodasi, sub'ektiv qarashlarining majmuidir.

Jiyanimning kabinetida ozg'in, tepakal, ko'zlari och odamning ko'ziday yaltirab turgan qirq besh yoshlardagi bir kimsa o'tirgan ekan (A.Qahhor). Keltirilgan ushbu och odamning ko'ziday o'xshatishida salbiy baho munosabati ifodalangan.

Mastura piqirlab kulib yubordi; yana kului, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi (A.Qahhor). O'zbek tilida yosh bola samimiylit, beg'uborlik ramzi bo'lib, yosh bola o'xshatish predmeti sifatida qo'llanilgan o'xshatishlarda ijobiy baho munosabati ifodalanganadi.

Quyidagi o'xshatishda ham ijobiy baho munosabati ifodalangan. *Biroq Fotima xayal o'tmay mushukchaday mayin xurrak otdi* (A.Qahhor). Yunus buvam mening javobimdan **yosh boladay** sevinib ketar edi, belbog'ining qatidan popukqand olib tutar edi (I.Sulton)

«Til birligidagi mavjud baho va nutq egasi tomonidan unga yuklangan baho munosabati farqlanadi. Nutq jarayonida til birligiga yuklangan baho pragmatikaning o'rganish obyekti bo'lib, uni konnotatsiyadan farqlash lozim»¹⁰⁴.

Sh.Safarov baholash harakatining yuzaga kelishida besh unsurning mavjudligi majburiy ekanligini ta'kidlaydi. Bular: subyekt, obyekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisi bo'lib, baholash dastlabki o'rinda subyekt – obyekt munosabatida, ya'ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e'tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo'ladi¹⁰⁵.

«Baho kategoriyasi nutq egasining nutq obyekti haqidagi shaxsiy munosabatining ifodasi, subyektiv qarashlarining majmuidir»¹⁰⁶. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. *Aksincha, u yerda ma'sumona arazlashlar va shudringday tiniq orzular bor* (I.Sulton). Bu orzular hali ham ajoyib orzu daraxtlarining yaproqlarida xuddi *shudringday* tovlanib-akslanib turibdi. (I.Sulton).

Baholar xarakteriga ko'ra mutlaq va qiyosiy bo'lishi mumkin. Obyektiv baho predmet tasavvur etilgandayoq his qilinishi mumkin bo'lgan baho shakli bo'lib, mutlaq

¹⁰³ Боймирзаева С. Бахо фаолияти ва унинг матнда ифодаланиши // Xorijiy filologiya. – Samarkand, 2008. – №2. – Б. 15.

¹⁰⁴ Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг pragmatik xususiyatlari: Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс... автореф. – Тошкент, 2018. – Б.26.

¹⁰⁵ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Ташкент, 2008. – Б. 184.

¹⁰⁶ Курбонова М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 26-27.



baho deb ham yuritiladi. Mutlaq bahoda kishilik jamiyati tomonidan qabul qilingan umuminsoniy o'lchovlarga javob bera oladigan xususiyatlar aks etadi¹⁰⁷. *Xotiralar... xotiralar shamol kabi yopirilar, uzoq-uzoqlardan, yillarning muzlagan qatlamlari orasidan boychechak ifori kabi ufurayotgan yoqimli va armonli kechinmalaming yodini olib kelib, shuuriga taqar edi* (I.Sulton). Keltirilgan misolda *shamol kabi yopirilar, boychechak ifori kabi ufurayotgan yoqimli va armonli* o'xshatishlari qo'llanilgan bo'lib, ijobiy baho munosabati ifodalangan.

Ko'rinish turibdiki, o'xshatishli qurilmali gaplarda subyektiv baho ham ifodalanishi mumkin, «nutq jarayonidagi his-tuyg'ulari va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi... Xususiy emotsiyal munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi»¹⁰⁸. Bunda subyektning yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, e'tiqodi, voqelikka munosabati, voqelikni qabul qilishda shaxsiy pozitsiyasi va yana qator omillar ahamiyatli sanaladi. «Aytish joizki, baho mazmunida emotsiya va oqilonalik o'zaro aloqada, ammo ularning munosabati turli ko'rinishda va turlicha kechadi. Bu munosabatlarning shakllanishi asosan matn muallifining, nutqiy faoliyatni ijro etuvchi shaxsning ko'zlayotgan pragmatik maqsadi bilan bog'liq. Baholash mazmunidagi nutqiy harakatlarning ba'zilarida emotsiya dastlabki o'ringa chiqadi va shunga muvofiq darajada lisoniy ifodaga ega bo'ladi»¹⁰⁹.

Subyektiv bahoda eng kami ikki predmet o'zaro qiyoslanadi, «qiyoslash inson intuitsiyasini olam qonuniyatlarini anglashga yo'naltirib, evristik vazifa bajaradi»¹¹⁰. Voqelikda kechayotgan hodisalar, mavjud bo'lgan predmetlarning inson tomonidan idrok etilishi va ular haqidagi axborotning boshqa bir shaxsga uzatilishi murakkab va mukammal jarayon ekanligini ta'kidlagan S.Boymirzayeva «Bu jarayonning dastlabki bosqichida pertseptiv qabul qilish harakatlari (ko'rish, his etish, sezish kabi) bajarilsa, keyingi bosqichlarida mantiqiy tahlil harakati boshlanadi va, nihoyat, shu tahlil asosida yuzaga kelgan tushuncha – kontsept lisoniy voqelikka ko'chadi. Ammo barcha turdag'i harakatlar (ruhiy, mantiqiy yoki boshqa xarakterga ega bo'lishidan qat'i nazar) o'z ijrochisi bo'lgan insonning «men»i, uning his-tuyg'ulari, bilish zahirasi, istak-xohishi bilan bog'liq»ligini qayd etadi¹¹¹.

Har taraf muz, jahannamiy sovuq chor tarafni yax kabi qotirgan edi (I.Sulton)

Baho har qanday nutqda uning semantik komponenti sifatida mavjud bo'ladi, lekin uning ifodalanishi turli nutqda o'ziga xos tarzda kechadi. So'zlash jarayonida so'zlovchi nimani nazarda tutganligi tushunish jarayonida tinglovchining uni qanday qabul qilishiga bog'liq bo'ladi. Sintaktik birliklarda baho munosabati sintaktik birlikni

¹⁰⁷ Камбаров Ф.Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахсларро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 12.

¹⁰⁸ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг pragmatik talқини: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2011. Б.34-35.

¹⁰⁹ Боймирзаева С. Кўрсатилган автореферат. – Б.29.

¹¹⁰ Усмонов Ф. Қиёслашнинг олам лисоний манзараси шаклланишидаги ўрни //Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2017. 6-сон. – Б.103.

¹¹¹ Боймирзаева С. Кўрсатилган автореферат. – Б.16.



hosil qilgan so'zlar, ularni bog'lovchi vositalar, sintaktik munosabatni yuzaga keltirayotgan ohang yordamida ham yuzaga chiqadi. *Nazirbuvi sandalning chetida, derazadan tushib turgan erta bahor oftobiga sho'rvada pishgan olmadek yuzi-ni tovlab, to'yan qo'zichoqday uqlab yotar edi* (A.Qahhor).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'xshatish predmeti vazifasida kelgan so'zda ijobiy yoki salbiy ma'noning bo'lishi subyektiv bahoning ifodalanishida muhim snaladi.